

## METAFORALAR TARJIMA JARAYONIDA SODIR BO‘LADIGAN SEMANTIK O‘ZGARISHLARI.

Mahfuza Nishonboyeva

FarDU doktoranti,

Farg‘ona, O‘zbekiston

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18986443>

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda metaforalarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan semantik o‘zgarishlarni tahlil qilinadi. Metaforaning bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda ma’no yo‘qolishi, torayishi yoki kengayishi, metaforaning boshqa metafora bilan almashtirilishi hamda madaniy omillar ta’sirida yuzaga keladigan semantik siljishlar ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, umuminsoniy konseptual metaforaning turlicha tuslanishi, obrazning buzilishi (loss of imagery), madaniy xilma- xillik va metafora qo‘llashdan maqsadni aniqlay olmaslik metafora tarjimasida yuzaga keladigan muammolarni keltirib chiqaruvchi asosiy omillar ekanligi ingliz va o‘zbek tillaridan olingan misollar asosida tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** metafora, tarjima, semantik o‘zgarish, demetaforizatsiya, ma’no yo‘qolishi, madaniy moslashuv, emotsional-ekspressivlik, kognitiv metafora, tarjimashunoslik, obrazning buzilishi (loss of imagery), konseptual metafora.

**Annotation.** This thesis analyzes the semantic changes that occur in the process of translating metaphors. The loss, narrowing or expansion of meaning in the translation of metaphor from one language to another, the replacement of metaphor with another metaphor, and semantic shifts that occur under the influence of cultural factors are scientifically covered. It is also analyzed that the different forms of universal conceptual metaphor, loss of imagery, cultural diversity, and inability to determine the purpose of using metaphor are the main factors that cause problems in metaphor translation, based on examples taken from English and Uzbek languages.

**Keywords:** metaphor, translation, semantic change, demetaphorization, loss of meaning, cultural adaptation, emotional-expressiveness, cognitive metaphor, translation studies, loss of imagery, conceptual metaphor.

**Аннотация.** В данной диссертации анализируются семантические изменения, происходящие в процессе перевода метафор. Научно рассмотрены потеря, сужение или расширение значения при переводе метафоры с одного языка на другой, замена метафоры другой метафорой, а также семантические сдвиги, происходящие под влиянием культурных факторов. Также на примерах из английского и узбекского языков анализируется, что основными факторами, вызывающими проблемы в переводе метафор, являются различные формы универсальной концептуальной метафоры, потеря образности, культурное разнообразие и неспособность определить цель использования метафоры.

**Ключевые слова:** метафора, перевод, семантические изменения, деметафоризация, потеря значения, культурная адаптация, эмоционально-экспрессивность, когнитивная метафора, переводоведение, потеря образности, концептуальная метафора.

### Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida tillararo muloqot va madaniyatlararo aloqalarning kengayishi tarjima jarayonining ahamiyatini yanada oshirmoqda. Ayniqsa, badiiy va publitsistik matnlarda keng qo‘llaniladigan metaforalar tarjimada murakkab lingvistik hodisa sifatida namoyon bo‘lib, ularni bir tildan ikkinchi tilga o‘tkazish jarayonida turli semantik o‘zgarishlar yuzaga keladi. Metafora nafaqat badiiy bezak vositasi, balki muallifning dunyoqarashi, madaniy tajribasi va kognitiv tafakkurini aks ettiruvchi muhim til birligidir.

Metaforalarning madaniyat bilan uzviy bog‘liqligi ularning tarjimasida madaniy moslashuv masalasini yuzaga chiqaradi. Z. Kövecses metaforalarning mazmuni milliy-madaniy tajriba asosida shakllanishini ta’kidlab, ularni boshqa tilga tarjima qilish jarayonida semantik siljishlar yuzaga kelishini tabiiy hodisa sifatida baholaydi.<sup>85</sup>

Metaforalarni tarjima qilish jarayonida ularning obrazlilik, emotsional-ekspressiv qiymati hamda madaniy mazmunini saqlab qolish tarjimon oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

<sup>85</sup> Kövecses Z. *Metaphor in Culture: Universality and Variation*. — Cambridge: CUP, 2005.

## **“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

Chunki metafora ko‘pincha muayyan xalqning mentaliteti, an‘analari va tarixiy tajribasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, boshqa til va madaniyatga o‘girilganda ma‘no yo‘qolishi, torayishi yoki semantik siljishlarga uchrashi mumkin.

Quyida metaforalar tarjimasida sodir bo‘ladigan semantik o‘zgarishlar hamda ularning asosiy turlari keltirilgan. O‘zbek va ingliz tilidan misollar orqali extra va intralingvistik omillar sanab o‘tilgan:

### **1. Umuminsoniy konseptual metaforaning turlicha tuslanishi.**

G. Lakoff va M. Johnson metaforani abstrakt tushunchalarni konkret tajriba orqali idrok etish vositasi sifatida izohlaydi.<sup>86</sup> Ushbu yondashuv metaforaning tarjima jarayonidagi murakkab tabiatini ochib beradi, chunki metafora til birliklari bilan bir qatorda madaniy va kognitiv omillar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Shunday metaforalar borki har qanday tilda bir xil kontekstda aks etadi, lekin unga yondashuv turlicha bo‘ladi. Bu konseptual metafora hisoblanib, mavzu bir xil, lekin model farqlidir. Masalan,

“Time is money”. Ingliz tilidagi eng mashxur konseptual metafora. Uni o‘zbekchaga “Vaqt puldir” deb tarjima qilinsa, oddiy jumla bo‘lib chiqadi.

Aslida o‘zbek madaniyatida vaqt ko‘proq “oltin” yoki “umr” bilan qiyoslanadi: “Vaqt oltindir” (oltindek qadrlı).

Umuminsoniy metaforalar (hayot – yo‘l, sevgi – sayohat) ko‘p hollarda oson tarjima qilinadi.

Milliy metaforalar esa (masalan, o‘zbeklarda “oq yo‘l” – omad, inglizlarda “green light” – ruxsat) bevosita tarjimada ma‘nosini yo‘qotadi.

Ingliz adabiyotida: “Life is a journey” (hayot – sayohat).

O‘zbekchaga “Hayot bir safar” deb tarjima qilinsa ham, obraz tushunarli, ammo estetik ohang pastroq chiqadi.

**Yechim:** Adaptatsiya – o‘quvchiga tushunarli qilib, yangi shaklda berish. Ya‘ni badiiylikni oshirish uchun mos poetik variant tanlanadi.

**Natija:** Keltirilgan gapda umuminsoniy obraz ham, badiiy ohang ham saqlanadi.

### **2. Obrazning buzilishi (loss of imagery)**

Obraz hamda emotsiya metaforaning kuchi hisoblanadi. Tarjimon faqat lingvistik tarjima qilar ekan, obraz ham hissiyot ham o‘ladi. P. Newmark metaforani tarjima qilish jarayonida uning asl ma‘nosi, obrazlilik yoki emotsional-ekspressiv qiymati to‘liq saqlanmasligi mumkinligini ta‘kidlaydi.<sup>87</sup> Olimning fikricha, tarjimada metafora ko‘pincha semantik yo‘qotish, torayish yoki ma‘no siljishiga uchraydi, bu esa tarjima tilining me‘yorlari va madaniy xususiyatlari bilan izohlanadi.

Masalan:

Inglizcha “the world is a stage” — bu Shekspir metaforasi.

Agar so‘zma-so‘z “dunyo – sahna” deyish bilan cheklansak, ma‘nosi tushunarli, ammo filosofik chuqurligi va badiiy effekti kamayadi.

### **3. Madaniy xilma-xillik.**

Mona Baker fikricha, metafora tarjimasida asosiy muammo – madaniy ekvivalentlikning yo‘qligi. Chunki ba‘zi metaforalar umuminsoniy bo‘lsa, boshqalari milliy-madaniy bo‘lib, tarjimada qayta ishlash yoki ijodiy yechim talab qiladi. Ma‘lumki, so‘z va uning ishlatilishi har bir tilda turlichadir. Masalan, ingliz tilida “don’t eat like a pig”- “cho‘chqadek yema” metaforik birikmani inglizlar ko‘p ovqat yema deb tushunsa, Chexiya aholisi ovqatni tartibsiz yema deb tushinishar ekan. Demak metaforani qo‘llashda yoki metaforik biliklarni tarjima qilishda o‘sha xalq madaniyatini chuqurroq o‘rganish talab etiladi, sababi yuqorida keltirilganidek, madaniyat tilda aks etadi. Shundan keyingina tarjima qilinayotgan birliklarga tarjima, agar iloji bo‘lmasa, o‘z xalqiga mos keluvchi ekvivalent topa olish tarjimonga qiyinchilik keltirib chiqarmaydi.

**Yechim:** Lingvokulturologik yondashuv

Bu yondashuv tarjimada milliy mentalitet, ramzlar tizimi, dunyoqarashni inobatga oladi. Har bir metafora tildan tashqari, madaniy kontekstga ega. Shuning uchun tarjimon “so‘z”ni emas, “madaniy obraz”ni o‘tkazishi kerak.<sup>88</sup>

### **4. Metaforik maqsadni aniqlash**

Metaforani nima maqsadda qo‘llanilayotganini aniqlay olmaslik tinglovchi yoki o‘quvchi ongida tushunmovchilik keltirib chiqaradi. Masalan, yuqorida cho‘chqa hayvoni misolini ko‘rib chiqdik. Endi

<sup>86</sup> Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. — Chicago: University of Chicago Press, 1980.p- 18-19

<sup>87</sup> Newmark P. *A Textbook of Translation*. — London: Prentice Hall, 1988.

Vinay J.-P., Darbelnet J. *Stylistique comparée du français et de l’anglais*. — Paris, 1958.

<sup>88</sup> ] Baker, M. (1992). *In Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge.

## “Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

ana shu hayvon nomini aynan bir tilda turli konteksts namoyon bo‘lishini ko‘rib chiqamiz. Cho‘chqa inson quyidagi ma’nolar kelib chiqishi mumkin:

1. Semiz inson
2. Jahldor inson
3. Tartibsiz inson

Ya’ni bir insonning meyoridan ortiq ovqatlanishini uchratgan inglizlar “Semiz inson” ma’nosida qo‘llaslar, boshqa vaziyatda tarbiyasiz yoki o‘ta tezoib, jahldor insonlarga nisbatan ham ishlatadilar. Chexiyaliklar esa uyi- usti boshi yoki kiyimlari tartibsiz, to‘zigan holatdagi inslarga “Pig man” – “cho‘chqa inson” metaforasini qo‘llaydi. Muammo shundaki, turli konteksts turli metaforalarni talab qilar ekan, mos keluvchi metaforani qo‘llash yoki uni to‘g‘ri tushunish, tarjima jarayonida ham o‘quvchiga asl ma’no yetkazib berish uchun kontekstdan xabardor bo‘lish, butun matnni tushunish hamda umumiy bilim darajasi yuqori bo‘lishi ushbu muammo yechimi hisoblanadi.

### 5. Metafora bu o‘xshatishmi?

Ba’zi bir til o‘rganuvchilar metaforani o‘xshatish vositasi (simile) bilan chalkashtirib yuborishadi. Bunday holatni nafaqat chet tilini o‘rganayotgan balki o‘z ona tilini o‘rganayotgan o‘quvchilarda ham kuzatishimiz mumkin. Agar gapda metafora oldidan –dek,-day, -simon, -vash, -namo qo‘shimchalari; kabi, singari, xuddi, yanglig‘, misoli, o‘xshash (as, like) ko‘makchilar yordamida shaxs va predmetlar bir-biriga qiyoslangada, bu holat metafora hisoblanmaydi balki o‘xshatish hisoblanadi. Meafora va o‘xshatishning qo‘llanilish jihatidan farqlasak, adabiyotshunoslikda metafora istiora san`atini hosil qiladi, o‘xshatish esa, tashbeh san`atini hosil qiladi.

Masalan,

Metafora: Buvijonim – uyimizning quyoshi.

O‘xshatish: Buvijonim misoli quyosh.

Metoforaning boshqa badiiy o‘xshatish vositalaridan farqlay olish ba’zan qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Shu sabali ko‘plab misollar orqali ko‘rib chiqish kerak bo‘ladi.

Metafora: Life is a highway- Hayot bu oxiri yo‘q yo‘l yoki o‘zbekcha metaforada tubi yo‘q dengizga to‘g‘ri keladi.

O‘xshatish: Life is **like** rainbow- Hayot **xuddi** kamalak.

Metafora va o‘xshatish ikki narsani bir- biriga o‘xshatish vazifasini bajarsada, ular quyidagi farqli jihatlariga ega:

Metafora	O‘xshatish (Simile)
U to‘g‘ridan to‘g‘ri o‘xshatmaydi, balki ishora qiladi, nazarda tutadi	To‘g‘ridan to‘ri solishtiradi
Qiyoslanuv jarayonida hech qanday qo‘shimlar-u yordamchi so‘zlarda foydalanilmaydi	Qiyoslanayotganda ko‘makchilar va o‘xshatish qo‘shimchalaridan foydalanish shart.
Nutqni kuchli va ta’sirchang qiladi	Nutqni aniq va tushunarli qiladi
Masalan, Susan bugungi musobaqada gepard edi.	Masalan, Susan bugungi musabaqa xuddi geparddek tez yugurdi

Xulosa qilib aytganda, metafora tarjimasini — bu so‘zlar tarjimasini emas, balki tafakkur, hissiyot, kechinmalar, obraz va madaniyat tarjimasini. Shuning uchun tarjimon oldiga semantik, madaniy va estetik jihatdan murakkab masalalarni qo‘yadi. Chunki metafora so‘zning bevosita ma’nosidan tashqariga chiqib, xalqning dunyoqarashi, milliy tafakkuri va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi. Shu sababli uni boshqa tilga o‘tkazishda ma’no yo‘qolishi, obrazning so‘nishi yoki madaniy konnotatsiyaning noto‘g‘ri talqini kabi muammolar yuzaga keladi. Shu kabi muammolarni oldini olish uchun ko‘plab olimlar qatori Peter Newmark ham bir qancha yechimlar keltirib o‘tkan. Peter Newmark metaforani tarjimada eng murakkab birlik sifatida ko‘rib, uni tarjima qilishning olti xil usulini ko‘rsatadi: to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima, sinonim/analogiya, izoh, almashtirish, moslashtirish, tushirib yuborish. Uning fikricha, strategiya tanlash tarjimaning janri va auditoriyasiga bog‘liq.<sup>89</sup>

### Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Kövecses Z. Metaphor in Culture: Universality and Variation. — Cambridge: CUP, 2005. – Pp. 67-72.

<sup>89</sup> Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. New York: Prentice Hall.

**“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral**

2. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. — Chicago: University of Chicago Press, 1980. — Pp. 3-6. 25-27.
3. Newmark P. *A Textbook of Translation*. — London: Prentice Hall, 1988. — Pp. 111-113
4. Vinay J.-P., Darbelnet J. *Stylistique comparée du français et de l’anglais*. — Paris, 1958. — Pp. 256-258
5. Baker, M. (1992). In *Other Words: A Coursebook on Translation*. London: Routledge. — Pp. 96-97.